

DINLARARO TOTUVLIK VA RADIKALIZMNI YENGISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8115911>

Rahmonova Dilnoza

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: muslimarahmonova371@gmail.com*

Annotatsiya.

Ushbu maqolada dinlararo totuvlik, bag'rikenglik tamoyillari va radikalizmga qarshi kurashish va uni yengish kabi masalalar ilgari surilgan. O'zbek millati azal-azaldan ko'p millatli xalq bo'lib tanilib kelgan. Bugungi kunga kelib O'zbekiston hududida 130dan ortiq millat va ellatlarning tinch-totuv, har biri bir-biri bilan do'stona hayot kechirayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, bu diyor naqadar bag'rikeng va xalqsevar davlat ekanligining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, bu diyor qancha ulamolarni o'z bag'riga olgan jannatmakon diyordir.

Bugungi kunda din ravnaqi uchun tosh otuvchi oqimlar va harakatlar kundan kunga ko'payib bormoqda. Bunday radikal kuchlarga qarshi qo'ldan kelguncha ma'naviy kurashmoqlik darkor.

O'tmishda mo'taziliylar, xavorilar, rofiziylar, qadariylar, jahmiylar din dushmanlari islomga yetkazolmagan zararni keltirishgan bo'lsa, hozirgi vaqtda "Al-qoida", "Musulmon birodarlari", "Hizbu-t-tahrir", "Akromiylar", "Nurchilar" va yana dinni targ'ib qilish niqobi ostidagi bir qancha firqalar mavjudki, ularning paydo bo'lishining bosh omili diniy mutaassiblik va g'uluga ketishlikdir.

Zero, Allohning eng buyuk ne'mati, biz yashab turgan olamning eng ajoyib mo'jizasi bo'lmish inson hayotiga tajovuz qilishga qaratilgan har qanday ko'rinisdagi tahdidlar katta gunoh ekan, har bir kishi bu ne'matni asrab-avaylashi, unga xiyonat qilmasligi lozimdir. Bu biz yosh avlodning Vatanimiz oldidagi farzandlik burchimizdir, shuningdek, Alloh ne'mat qilib bergan bu tinchlik va farovonlikning shukronasi o'laroq qo'ygan ilk qadamimizdir.

Kalit so'zlar

Dinlararo totuvlik, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi, "Al-qoida", "Musulmon birodarlari", "Hizbu-t-tahrir", "Akromiylar", "Nurchilar", "islom terrori", "islom fundamentalizmi", "islom ekstremizmi", aqidaparastlik, bag'rikenglik.

O'zbekiston qadim-qadimdan bag'rikenglik, ilmu ma'rifat, ma'daniyat va taraqqiyot diyori bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham bu makonda diniy nizolar bo'lmagan. Bu diyor Imom Buxoriy, Termiziy, Farg'oniy-u Farobiy larni, Imom

Moturudiy va Zamaxshariylar, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk tafakkur va ilm egalari, qolaversa, butun dunyo tan bergan bu zotlarni o'z bag'riga olgan, ko'plab olim-u fuzalolarning tug'ilib o'sgan yeri bo'lgan jannatmakon diyordir bu. Albatta, ular va ularning har bir yozgan asarlari haqni botildan ajratuvchi, xalqni to'g'ri yo'lga boshlovchi, go'yo zulmatdan nur sari eltuvchi shamchiroq kabi edilar. Qadimdan bu diyordagi xalq ma'rifatni sevgan, uni ardoqlagan va boshlarni ham unga chorlagandir.

Mustaqillikning ilk yillarida yurtimizga tahdid solgan turli buzg'unchi g'oyalarga ham bu el ma'rifiy yo'l bilan kurashdi. "G'oyaga qarshi faqat g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash olib borish" tamoyili o'rta qo'yildi. Xalqni terrorizm va ekstremizm kabi xatarli oqibatlardan yiroq bo'lish lozimligini eslatib qo'ydi. Bunda, albatta, yurtboshimizning hissalarini beqiyosdir.

Beshigida ne-ne allomalarni voyaga yetkazgan bu xalq "sog'lom, kuchli, bilimli va dono" avlod uchun g'am yedi. Yangi-yangi Buxoriy va Termiziylarni, Ibn Sino va Xorazmiylarni tarbiya etish sari dadil qadam qo'ydi.

Bugun O'zbekistonda 16 diniy konfessiya, 130dan ortiq millat erkin faoliyat olib borayotgani, 2000 dan ortiq masjid, 10 ta ta'lim muassasasi mo'min-musulmonlar ixtiyorida ekani bu diyorda vijdon erkinligining to'la kafolatlanganligining yorqin dalili, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturudiy, Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, Burxoniddin Marg'inoniy, Xoja Axror Valiy, Qaffol Shoshiy kabi allomalarning ziyoratgohlari obod etilgani va asarlari nashr qilingani ma'rifiy soha taraqqiyotining muhim omili bo'ladi. Bu borada erishilgan yutuqlarni dunyo tan oldi. 2007 yilda nufuzli xalqaro tashkilot - Islom Konferensiyasi Toshkenti(IKT)ning Ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha muassasasi - ISESCO tomonidan Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada erishilgan yutuqlarning navbatdagi in'kofi bo'ldi¹⁰².

Zero, marifat nuri jaholat zulmatini parchalaydi. Imon ziyosi mutaassiblik zimistonini bartaraf qiladi. Bugun jona-jon Vatanimiz barcha sohalarda taraqqiyot yo'lidan ilgarilab bormoqda. Ammo, erishilgan yutuklar osonlik bilan qo'lga kiritilmaganini, buning ortida qancha-qancha insonlarning fidokorona mehnati, yurt uchun chekkan zaxmatlari yotganini unutmaslik darkor. Bu hushyorlik chekka-chekkalarda o'z galini kutib turgan, fursatini poylab turgan xavflardan ogoh bo'lishga chorlaydi. Bu ogohlik bizni dunyoda sodir bo'layotgan turli nizolar

¹⁰² S.Saidjalolov, "Islomdagi mazhablar va oqimlar". "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2012. - B. 123-124.

va kelishmovchiliklar hamda murakkab vaziyatlardan to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi.

Diniy bag'rikenglik - tinchlikka xizmat qilib, odamlar ortasidagi tabaqalashishning oldini oladi, teng huquqlilikni taminlaydi. Sababi, turli din va elatga mansub aholi orasida totuvlikni taminlash, ularning bir jamiyatda ahil-inoq yashashiga sharoit yaratish zarurati aholi soni oshib borayotgan, diniy-etnik munosabatlar tobora murakkablashib borayotgan bir paytda juda zarur¹⁰³.

2018-yil 12-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 73-sessiyasida aynan O'zbekiston tashabbusi bilan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi. E'tiborli jihati, rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil 19-20-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan edi. Bu tashabbus jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Oradan ko'p vaqt o'tmay "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi BMTga a'zo 193 mamlakatning yakdil ovozi bilan qabul qilindi. 50 dan ortiq mamlakat mazkur rezolyutsiyaga hammuallif bo'lish istagini bildirdilar. "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining ahamiyatli jihatlaridan biri unda ilmga, bilimga, fanga alohida e'tibor qaratilganidir. Rezolyutsiyaning 4-moddasida diniy bag'rikenglikni mustahkamlash uchun kishilar, avvalo, turli din va e'tiqodlar haqida tasavvurga ega bo'lishlari zarurligi, buning uchun bilim olishga alohida e'tibor qaratish muhimligi ta'kidlangan¹⁰⁴.

2019-yilning 31-iyul sanasida Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh kotibining xalqaro tinchlik va xavfsizlikka ISHID tomonidan xavf solinayotganiga bag'ishlangan to'qqizinchi ma'ruzasi taqdim qilindi. 2015-yil BMT Xavfsizlik kengashining 2253-sonli rezolyutsiyasida Bosh Kotibga har olti oyda mazkur terroristik guruh tahdidi haqida ma'ruza tayyorlash topshirilgan edi. O'zbekistonning ayrim ommaviy axborot vositalarida xabar berilgan ushbu ma'ruzada BMT Bosh kotibi Afrika, Yevropa, Osiyo kabi mintaqalarida islom niqobi ostida faoliyat yuritayotgan terroristik tashkilotlar, ularning joylashuvi, faoliyati, moliyaviy holati borasidagi ma'lumotlarni keltiradi. Bu jahon hamjamiyati uchun ogohlantirish qo'ng'irog'idir.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik bayramining 28 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida mamlakatimizni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini

¹⁰³ <https://darakchi.uz/index.php/oz/132024>

¹⁰⁴ S.Saidjalolov, "Islomdagi yo'nalish va mazhablar". "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2021. - B. 128.

ta'minlashda Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" degan ustuvor g'oya dasturilamal bo'lib xizmat qilayotganini qayd etdi. Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" hayotning barcha sohalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi¹⁰⁵.

Bugungi kunda barcha harakatlar tinch-totuvlikni, millatlar va dinlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan. Shunday ekan har bir inson, u qaysi din va aqidaga ishonishidan qat'iy sayyoramizda tinchlik va osoyishtalikni saqlashga hissa qo'shishi, bashariyatni o'zaro hamjihatlik va birdamlikka chorlashi zarurdir.

O'tmishda mo'taziliylar, xavorilar, rofiziylar, qadariylar, jahmiylar din dushmanlari islomga yetkazolmagan zararni keltirishgan bo'lsa, hozirgi vaqtda "Al-qoida", "Musulmon birodarlari", "Hizbu-t-tahrir", "Akromiylar", "Nurchilar" va yana dinni targ'ib qilish niqobi ostidagi bir qancha firqalar mavjudki, ularning paydo bo'lishining bosh omili diniy mutaassiblik va g'uluga ketishlikdir.

Shonli islom tarixiga nazar tashlasak aynan mutaassiblik va aqidaparastlik kabi eshitganda ham insonni behuzur qiluvchi bu illatlar oqibatida ko'plab notinchliklar va nizolar kelib chiqqanining guvohi bo'lamiz. Ming afsuzlar bo'lsinki, mutaassiblik, dinda g'uluga ketishlik ya'ni chuqur ketish oqibatida hatto mo'min-musulmon kishini kofir, imonsiz, murtad ya'ni dindan qaytgan deb atalish hollari ham bu tarix shohiddir va bu holat bugungi kunimizni ham go'yo oqib turgan zilol suv loyqalatilgani kabi bulg'amoqda.

Bunga misol qilib al-Haruriya firqasini keltirish mumkin, ularning asl da'vosi, Ali ibn Abu Tolibga kufr bilan guvohlik beradilar. Undan voz kechib insonlarni ham undan voz kechishga hamda Ali ibn Abu Tolibni kofirga chiqarishga da'vat qiladilar. Dinda chuqur ketib, haddidan oshish natijasida musulmonlar ichida ko'plab adashgan firqalar vujudga kelgan, bunga misol qilib rofiziylar firqasini keltirish mumkin, chunki ular Ali ibn Abu Tolibni sevishda haddan oshdilar, hatto uni Payg'ambar (s.a.v.), muhojir va ansoriylardan ham ustun qo'yidilar. Rofiziylar aynan mana shu e'tiqod, ya'ni dinda chuqur ketish sababli to'g'ri yo'ldan adashdilar.

Bunday oqim va harakatlar o'z maqsadlarini amalga oshirishdagi uslublaridan biri terror harakatidir. Terror - zo'ravonlikka olib boruvchi yo'l bo'lib, o'tgan asr boshlarida turli ekstremistik kayfiyatdagi oqimlarga xoslangan iboradir. Bu so'z o'tgan asr oxirlaridan boshlab din niqobi ostida faoliyat yuritayotgan noislomiy siyosiy oqimlarga ham qo'llanila boshladi. Natijada, biz yashayotgan asrimizga

¹⁰⁵ S.Saidjalolov, "Dinlardagi oqimlar va sektalar". "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2019. - B. 206.

kelib g'arb islomshunos olimlari tomonidan "islom terrori", "islom fundamentalizmi", "islom ekstremizmi" kabi atamalar paydo bo'ldi. Albatta, bularning har biri mutaassiblik, aqidaparastlik va dindagi g'uluning yoqimsiz va zaharli mevasidir.

Shuningdek, Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadisi shariflarida aqidaparast mutaassiblar qattiq qoralangan bo'lib, unday kishilarni "xavorij", ya'ni "isyonkorlar, dindan kamon o'qi kamondan otilgani kabi juda tez otilib chiqadigan kishilar", deb sifatlangan. Rasululloh (s.a.v.) bunday holat va illatlarni o'zlarining hayiti dunyolarida aytib ogohlikka chorlaganlar.

Alloh taolo "Niso" surasining 59-oyatida: "Ey mo'minlar, Allohga itoat qilingiz va payg'ambarga hamda o'zlarinigizdan bo'lgan (ya'ni musulmon) hokimlarga bo'yinsuningiz! Bordiyu biron narsa haqida talashib qolsangiz - agar haqiqatan Allohga va oxirat kuniga ishonsangiz u narsani Allohga va payg'ambariga qaytaringiz! Mana shu yaxshiroq va chiroyliroq yechimdir¹⁰⁶".

"Niso" surasining mazkur oyatida Alloh taolo bandalarini O'ziga va Rosuliga hamda o'z oralaridan chiqqan musulmon boshliqlarga itoat etishni buyurib, biror muammoli masalaga duch kelinganda uning yechimini Alloh va payg'ambariga havola etishni, ya'ni bunday holda Qur'on va hadisga murojaat qilishni buyurmoqda.

Darhaqiqat, ixtilof vaqtidagi masalaning eng to'g'ri yechimi, qanday yo'l bilan bo'lsa ham firqalarga ajralishning oldini olishdir. Buning uchun esa musulmon kishi Qur'oni Karimda buyurilganidek, Alloh taoloning kitobi va Rasulining sunnatiga so'zsiz ergashib, Alloh va Rasuliga hamda o'zlaridan bo'lgan rahbarlarga itoat etishi shart. Musulmon kishi ko'r-ko'rona taqlid qilmasdan, balki Alloh taoloning kalomi va Payg'ambarining hadislariga ergashmog'i, agar o'ziga lozim bo'lgan aqidaviy va shar'iy masalalarni bilishga o'zining ilmi yetarli bo'lmasa, unda o'zining shar'iy va aqidaviy masalalarini ishonchli, taqvodor, olim kishilardan so'rab bilmog'i hamda uni amalga tatbiq etishda fitna keltirib chiqarishdan ehtiyot bo'lmog'i kerak.

Payg'ambarimiz (s.a.v) dinda qanday yo'l tutish lomzimligi haqida shunday ko'rsatma beradilar: "Din yengildir, hech kim uni qiyin- lashtirib yubormasin, mabodo qi- yinlashtirib yuborsa, din uni yengib qo'yadi...", ya'ni farz qilingan ibodatlardan tashqari ibodatlarni va solih amallarni haddan ziyod o'z zimmasiga yuklab olishi natijasida ularni bajara olmay hammasini tark etishga sabab bo'ladi.

¹⁰⁶ Shayx Abdulaziz Mansur "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". Toshkent-2009. Niso surasi, 59-oyat

Oisha (r.a.)dan rivoyat qilingan quyidagi hadisda Rasululloh (s.a.v.) ibodatlarni bajarishda Alloh taoloning fazlidan umid qilgan holda mo'tadil bo'lishni buyuradilar: "Toat-ibodatlarinigizni to'g'ri, mo'tadil ado etinglar, bilinglarki, birortangizni qilgan toat-ibodatingiz jannatga kiritmaydi. Alloh taolo xushlaydigan toat-ibodat, qisqa bo'lsa-da, uzluksiz ado etiladigan ibodatdir!"

Bugungi kunda jadallashib borayotgan tezkor axborot asrida bu illatlarning ba'zi bir manfaatdor doiralar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, o'z manfaatlari uchun dindan ustomonlik bilan foydalanishga urinishlari tashvishlanarli, achinarli holdir. Xalqimizning tinchligiga rahna solib, musaffo osmonimizni notinch qilishga yoki yoshlarimiz ongiga din va madaniyat niqobi ostida bizga yot bo'lgan turli g'oyalarni tiqishtirishga urinayotganlar ham oz emas. Bunday holga beparvo, befarq qarab turish Vatanning ravnaqi, uning kelajagi uchun katta bir to'siqdir. Shubhasiz, bu biz fuqarolardan doimiy sergaklik, hushyorlikni talab qiladi. Muhtaram birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: "Hushyorlik, ogoh bo'lib yashash - bir kunlik yoki bir oylik mavsumiy masala emas, balki kundalik ish, kundalik amaliy harakat bo'lishi lozim."

Darhaqiqat, Allohning eng buyuk ne'mati, biz yashab turgan olamning eng ajoyib mo'jizasi bo'lmish inson hayotiga tajovuz qilishga qaratilgan har qanday ko'rinishdagi tahdidlar katta gunoh ekan, har bir kishi bu ne'matni asrab-avaylashi, unga xiyonat qilmasligi lozimdir. Bu biz yosh avlodning Vatanimiz oldidagi farzandlik burchimizdir, shuningdek, Alloh ne'mat qilib bergan bu tinchlik va farovonlikning shukronasi o'laroq qo'ygan ilk qadamimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Saidjalolov, "Dinlardagi oqimlar va sektalar". "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2019.
2. Shayx Abdulaziz Mansur "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". Toshkent-2009.
3. S.Saidjalolov, "Islomdagi mazhablar va oqimlar". "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2012.
4. <https://darakchi.uz/index.php/oz/132024>
5. S.Saidjalolov, "Islomdagi yo'nalish va mazhablar". "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent - 2021.